

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

“TASDIQLAYMAN”

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

rektori _____ O.Sh. Bazarov

“ ____ ” _____ 2022 yil

“DUNYO NEFTGAZLI HUDUDLARI VA AKVATORIYALARI”

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	300000	-	Ishlab chiqarish texnik soxa
Ta’lim sohasi:	310000	-	Muhandislik ishi
Ta’lim yo‘nalishi:	5311700	-	Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi (neft va gaz konlari)

Qarshi-2022 y

Fanning o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 202_ yil _____._____. dagi __ - sonli Uslubiy Kengashida tasdiqlandi.

Fanning o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi

Tuzuvchilar:

Sh.A.Sultonov

- QMII "Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi" kafedrası katta o'qituvchisi.

J.Sh.Rabbimov

- QMII "Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi" kafedrası assistenti.

Taqrizchilar:

dots. T.N.Yarboboyev

- QMII Geologiya va konchilik ishi fakulteti dekani

dots. P.R.Qurbonov

- QarDU O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (202_ yil _____._____. dagi __ - sonli bayonnoma).

I. O‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

Ushbu dastur dunyo neftgazli hududlari va akvatoriyalarining geologik tuzilishini, neftgazlilikini va ularning geologik-tektonik, geodinamik rivojlanish tarixini o‘rganish va bu fanning yangi neft va gaz konlarini izlashdagi amaliy ahamiyati bilan bog‘liq masalalarni yoritish me’todlarini qamrab olgan va ularning oqibatlari bilan bog‘liq masalalarni qamrab oladi.

II. O‘quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda “Foydali qazilma konlari geologiyasi va qidiruv va razvedkasi (neft va gaz)” bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.

O‘quv fanini o‘rganishning asosiy vazifalari - Yer litosfera plitalarida neft va gaz to‘plamlarini zamonaviy me’todologik prinsiplar asosida rayonlashtirish, litosfera neftgazlilikini nazorat etuvchi geotektonik elementlar shakllanishining geodinamik sharoitlarini o‘rganish, Dunyo neftgazli provinsiyalarining umumlashgan genetik tasnifini o‘zlashtirish va Yer litosfera plitalaridagi neftgazli provinsiyalar va oblastlarning litologik, geotektonik, geodinamik xossa xususiyatlarini o‘zlashtirish va uglevodorod konlari tarqalish qonuniyatlarini bilishdan iborat.

“Dunyo neftgazli hududlari va akvatoriyalari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- bilimlarning bir butun tizimi bilan o‘zaro bog‘liqlikda ushbu fanning asosiy muammolari;
- neftgazgeologik rayonlashtirish prinsiplari va uning amaliy ahamiyati;
- neftgazli provinsiyalar;
- neftgazli oblastlar;
- neftgazli rayonlar, neftgazy ig‘iluvchi zonalar va bunday neftgazgeologik elementlarni litosfera plitalarida rayonlashtirish prinsiplari haqida tushunchaga ega bo‘lishi;
- Dunyo neftgazli provinsiyalarining umumlashgan genetik tasnifini o‘qishni;

- Har bir litosfera plitasida rayonlashtirilgan neftgazli provinsiyalarning Dunyo neftgazli provinsiyalarining umumlashgan genetik tasnifidagi o‘rnini;

- Neftgazli provinsiyalarning va neftgazli oblastlarning litologik, geotektonik, geodinamik xosa-xususiyatlarini va ularda genetik jihatdan turlicha bo‘lgan neft va gaz konlarining tarqalishini bilishi va ulardan amaliyotda foydalana olishi;

- neftgazli provinsiyalarning va neftgazli oblastlarning litosfera plitalarida tarqalish qonuniyatlari;

- litosferada regional neftgazli to‘plamlarning tarqalish qonuniyatlarini amaliy nuqtai nazaridan yangi uglevodorod konlarini izlashlikdagi ahamiyati ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

“Dunyo neftgazli hududlari va akvatoriyalari” fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 4-kursning 7- va 8- semestrda o‘qitiladi va o‘quv rejasidagi fundamental (oliy matematika, fizika, nazariy mexanika), umumkasbiy (umumiy geologiya, strukturalar geologiyasi va plitalar tektonikasi, neft va gaz geologiyasi va geofizikasi, neftgazli komplekslar: litologiya va tabiiy saqlagichlar) va ixtisoslik (geotektonika va geodinamika, neftgaz qazib chiqarish geologiyasi va neft va gaz zahiralarini hisoblash) fanlari bilan o‘zaro bog‘iqlikka ega hamda uslubiy jihatdan bu fanlar bilan ketma-ketlik prinsipiga asoslangan.

“Dunyo neftgazli hududlari va akvatoriyalari” fani neft va gaz konlarini izlash va razvedkasi yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi va u yoki bu neftgazli hududda yangi neft va gaz konlarini ochishda ularni genetik jihatdan prognoz qilish uchun zamin yaratadi hamda zamin neftgazliligini prognoz qilishda qo‘llaniladigan geologik muqobillik (analogiya) metodini keng miqyosda qo‘llashlik uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi. Zero, yangi konlarni ochish Dunyoda aniqlangan o‘xshash konlarni o‘rganish tajribasidan foydalangan holda bashorat qilishni taqozo etadi.

Shuning uchun Dunyo neftgazli hududlari va akvatoriyalarini o‘rganishga alohida talablar qo‘yiladi va ushbu fan asosiy ixtisoslik fani bo‘lib, neft va gaz sanoati tizimining ajralmas bo‘g‘ini hisoblanadi.

O'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, Yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishlab chiqarishdagi namunalar va maketlardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida mos ravishdagi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu. "Dunyo neftgazli hududlari va akvatoriyalari" faniga kirish fanni mazmuni, uning maqsadi va vazifalari

Regional neftgazlilikning ikki me'zoni neftgazli provinsiyalar geotuzilmalar shakllanishining geodinamik sharoitlari va ular neftgazliligining stratigrafik kengligi asosida Dunyo neftgazli provinsiyalarining umumlashgan tasnifi o'rganiladi.

2-mavzu. Neftgaz hududlari va akvatoriyalarini o'rganish: ahamiyati, tarixi va tamoyillari

Hozirgi kundagi dunyo neftgaz hududlari va akvatoriyalarini o'rganish: ahamiyati, tarixi va tamoyillari haqida tushunchalarga ega bo'lish.

3-mavzu. Litosfera plitalari va ularning geotektonik elementlari.

Litosfera plitalarini o'rganishning ahamiyati. Litosfera plitalarining Neftgaz to'plamlari to'planishiga ta'siri. Litosfera plitalari mavzusiga oid asosiy terminlarni o'rganish.

4-mavzu. Neftgaz to'planishini nazorat qiluvchi litologik va stratigrafik ob'ektlar.

Neftgaz to'planishini nazorat qiluvchi litologik va stratigrafik turdagi regional elementlar hamda geotuzilma elementlari shakllanishi ahamiyatini o'rganish, neftgaz to'planuvchi zonalar joylashuvini nazorat qilishni o'rganish, lokal ob'ektlar va

aloxida konlar hamda uyumlarni genetik kelib chiqishi kabi masalalar haqida tushunchaga ega bo'lish.

5-mavzu. Yer qobig'i bo'laklarining ajralish bosqichi

Yer qobig'i bo'laklarining ajralish bosqichi bo'yicha vaqt birliklari riftan oldingi pog'ona, riftogen pog'ona, spreading pog'ona haqida tushunchalar.

6-mavzu. Yer qobig'i bo'laklarining birikish bosqichi

Yer qobig'i bo'laklarining birikish bosqichi bo'yicha vaqt birliklari riftan so'ng (epiriftogen) va spreadingdan so'ng (epispreiding) pog'onalar haqida tushunchalar.

7-mavzu. Dunyo neftgazli provinsiyalarining umumlashgan tasnifi va unda

O'zbekiston neftgaz to'plamlarining o'rni.

Dunyo va O'zbekiston neft qazib chiqarilish holati va zaxiralari haqida tushunchalar, Dunyo va O'zbekiston tabiiy gaz qazib chiqarilish holati va zaxiralari haqida tushunchalar.

8-mavzu. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) dagi neftgazli hududlari

MDH davlatlarini Neft zaxiralari va qazib chiqarish sur'atlari, MDH davlatlarini Tabiiy gaz zaxiralari va qazib chiqarish, MDH davlatlarini Neft va gaz qazib chiqarishdagi o'rni haqida so'z yuritiladi

9-mavzu. Shimoliy Amerika litosfera plitasi

Litosfera plitasining neftgazli provinsiyalari, uyushmasi, neftgazli provinsiyalar kamari va mustaqil neftgazli provinsiyalari haqida so'z yuritiladi.

10-mavzu. Janubiy Amerika qadimgi platformasining neftgazli provinsiyalar uyushmasi

Janubiy Amerika qadimgi platformasining neftgazli provinsiyalari uyushmasi, neftgazli provinsiyalar kamari va mustaqil neftgazli provinsiyalari haqida soʻz yuritiladi.

11-mavzu. Afrika litosfera plitasining neftgazogeologik rayonlashtirish va neftgazli provinsiyalarning umumlashgan tasnifidagi oʻrni

Litosfera plitasining neftgazli provinsiyalari uyushmasi, neftgazli provinsiyalar kamari va mustaqil neftgazli provinsiyalari haqida soʻz yuritiladi.

12-mavzu. Hind-Avstraliya litosfera plitasi va Arabiston qadimgi platformasining geologik tuzilishi va geotektonikasi

Hind-Avstraliya litosfera plitasi va Arabiston qadimgi platformasining geologik tuzilishi va geotektonik tuzilishi haqida suz yuritiladi.

IV. Amaliy mashgʻulotlar boʻyicha koʻrsatma va tavsiyalar

Amaliy mashgʻulotlarni tashkil etish boʻyicha kafedra professor-oʻqituvchilari tomonidan koʻrsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maʼruza mashgʻulotlarida olgan bilim va koʻnikmalarni misol va masalalar yechish bilan mustahkamlaydilar. Bunga jamoa boʻlib mashq qilish yoʻli bilan va mustaqil ishlash yoʻli bilan erishiladi. Mustaqil ishlashda darsliklarni, oʻquv qoʻllanmalarni, tarqatma va koʻrgazmali ashyolarni ahamiyati katta.

Amaliy mashgʻulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Litosfera plitalari guruhi va turlarida neftgazli provinsiyalarni joylashishi.
2. Stratigrafik turli diapazondagi neftgazli provinsiyalarni joylashishi
3. Volgo-Ural neftgazli hududi

4. Timon-Pechora neftgazli hududi
5. Kaspiy oldi neftgazli hududi
6. Vilyu neftgazli hududi
7. Alp – Himolay neotetis Alpiy burmachanliklari tog‘oldi egeliklarining neftgazli provinsiyalari kamari
8. Kopetdog‘ tog‘oldi neftgazli provinsiyasi
9. Meksika ko‘rfazi Janubiy-G‘arbiysohili neftgazli provinsiyasi va oblastlari
10. Qoyali tog‘lar neftgazli provinsiyasi va oblastlari
11. Mongoliya – Amur neftgazli provinsiyasi
12. Oxota dengizi alpiy burmachanligining neftgazli provinsiyalari va oblastlari.

V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Neftgaz hududlari va akvatoriyalarini o‘rganish ahamiyati tarixi va tamoillari. Dunyo va O‘zbekistonda neft va tabiiy gaz zaxiralari, qazib chiqarilishi.
2. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) dagi neftgazli hududlar va obyektlar.
3. Neftgazogeologik rayonlashtirishning asosiy birliklari va ularni ajratish qoidalari.
4. Neftgaz hududlarni o‘rganishda zamonaviy metodologik tasnifi.
5. Dunyo neftgazli provinsiyalarning umumlashgan tasnifi.
6. Shimoliy Amerikada neft va tabiiy gaz zaxiralari, qazib chiqarish..
7. Shimoliy Amerika qadimgi platformasining neftgazli provinsiyalari uyushmasi.
8. Meksikabo‘yi-Shtat qurama poydevorli platforma megasniklizasining neftgazli provitsiyalari uyushmasi.
9. Kordilera mezozoy burmachanligining tog‘ oldi egikliklari neftgazli provinsiyalari kamari.
10. Tinch okean oldi alpiy burmachanligi egikliklarining neftgazli provinsiyalari kamari.

11. Shimoliy Amerika qit'asining Arktikaoldi sust chekkasi neftgazli provinsiyalarining kamari.
12. Sharqiy Yevropa qadimgi platformasining neftgazli provinsiyalari uyushmasi.
13. Markaziy Yevrosiyo quama poydevorli platformasi neftgazli provinsiyalarning uyushmasi.
14. Sharqiy Sibir qadimgi platformasining neftgazli provinsiyalari uyushmasi.
15. Alp-Himolay neotetis alpiy burmachanliklari tog'oldi egikliklari va tog'lar oralig'i botiqliklarini neftgazli provinsiyalari kamari.
16. Yevrosiyo qit'asining artikaoldi sust chekkasineftgazli provinsiyalar kamari.
17. Yevrosiyo litosfera plitasining g'arbiy qismi –G'arbiy Yevropa davlatlari hududi va akvatoriyalari.
18. Osiyoning tarqoq sesmik kamari.
19. Amur litosfera plitasi.
20. Janubiy Amerika va Markaziy amerika davlatlarida neft va tabiy gaz zaxiralari, Janubiy Amerika qadimgi platformasining neftgazli provinsiyalar uyushmasi.
21. Andtog'lari Alpiy burmachanligi tog'olodi egikligining va tog' oralig'i botiqliklarining neftgazli provinsiyalari kamari.
22. Janubiy Amerika qit'asi sust-chekkasining Atlantikaoldi neftgazli provinsiyalari kamari.
23. Afrika davlatlarida neft va tabiy gaz zaxiralari, Afrika litosfera plitasini neftgazogeologik rayonlashtirish.
24. Sharqiy Afrika rift sistemasi, Afrika qit'asining sust-chekkasidagi Atlantikaoldi neftgazli provinsiyalari kamari.
25. Yaqin Sharq davlatlari, ularning neft va tabiy gaz zaxiralari, Arabiston qadimgi platformasining geologik tuzilishi va geotektonikasi.
26. Arabiston qadimgi platformasining neftgazli provitsiyalari uyushmasi.
27. Mesopotamiya alpiy burmachanligi tog'oldi egikligining Paleozoy-Mezozoy-Kaynozoy neftgazli provinsiyalari.
28. Hind-Avstraliya litosfera plitasi.

29. Antraktida litosfera plitasi.
30. Xitoy va Tinch okean litosfera plitalari.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Абидов А.А. Дунё нефтгазли худудлари ва акваториялари. Тошкент, Шарқ, 2009.
2. Абидов А.А. Нефтегазоносность литосферных плит Мира, Т., Фан, 2009. – 628 с.
3. A.A.Abidov, S.A.Raxmatova, X.A.Abidov. Dunyo neftgazli hududlari va akvatoriyalari. Darslik. -T. «Fan va texnologiya» 2015
4. Бакиров А.А. и др. Нефтегазоносные провинции и области зарубежных стран. Учебник. М. Недра, 1971. – 268 с.
5. Каламкарров Л.В. «Нефтегазоносные провинции и области России и сопредельных стран» Москва. РГУ нефти и газа. 2005. – 576 с.
6. Гаврилов В.П. Геотектоника, М., РГУ нефти и газа, 2005.
7. Бакиров Э.А. и др., Геология нефти и газа, М, Недра, 1990.
8. Richard C. Selley. Department of Geology Imperial College. Elements of petroleum geology. Sekond Edition. London, United Kingdom-1998.

Qo'shimcha adabiyotlar

9. Абидов А.А. Современные основы прогноза и поисков нефти и газа. – Ташкент: Фан, 2012 .
10. Умурзаков Р.А. Региональные особенности поля тектонических напряжений отдельных сейсмоактивных областей Западного Тянь-Шаня // Проблемы сейсмологии Узбекистана. – Ташкент. 2007. № 4 –С. 133-137.
11. Гаврилов В.П. Общая и региональная геотектоника., М., Наука,1986.

12. Ахмеджанов М.А. Геотектоника, маърузалар тўплами, ТДТУ, Т, 1995.
13. Adilov.B.F. Regional geologiya va geotektonika. O'quv qo'llanma. - Toshkent.: LESSON PRESS 2015.
14. Sultonov.Sh.A. Geotektonika. O'quv – uslubiy qo'llanma Qarshi - 2014

Internet saytlari

15. www.gov.uz
16. www.lex.uz
17. www.orbita.uz
18. www.google.com
19. www.Ziyonet.uz
20. www.Vikipidea.ru

